



MAKTABDA O‘QUVCHI-QIZLAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Haydarova Hamida Ismatovna

Jizzax shahar 17-maktab psixologi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchi-qizlar bilan ishlash jarayonining psixologik jihatlarini, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda ta’lim-tarbiya jarayonida psixologning vazifalari yoritilgan. O‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ruhiy barqarorligini ta’minlash, o‘ziga ishonchini rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi-qizlar, psixologik ish, tarbiya, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit, o‘ziga ishonch, kommunikatsiya, ma’naviy tarbiya, ta’lim jarayoni, moslashuv.*

KIRISH

Ta’lim muassasalarida o‘quvchi-qizlar bilan ishlash muhim pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. O‘quvchi-qizlarning jamiyatda munosib o‘rin egallashi, ma’naviy va intellektual jihatdan rivojlanishi ko‘p jihatdan maktab muhitiga, o‘qituvchi va psixologlarning yondashuviga bog‘liqdir. O‘quvchi-qizlar bilan olib boriladigan ishlar ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

O‘quvchi-qizlarning psixologik rivojlanishida oilaviy muhit muhim o‘rin tutadi. Oila – bola uchun dastlabki tarbiya maskani bo‘lib, unda shakllangan qadriyatlar keyingi hayot faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Ota-onalarning farzandga bo‘lgan munosabati, muloqot madaniyati va tarbiyaviy uslublari o‘quvchi-qizlarning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim muassasalarida ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.



O'quvchi-qizlar bilan ishlashda psixologning asosiy vazifalaridan biri ularning o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish hisoblanadi. O'smirlik davrida bolalarda o'zini baholash tizimi shakllanadi va bu jarayonda atrof-muhitning ta'siri katta bo'ladi. Psixologik qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchi-qizlarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam berish mumkin.

Maktab muhitida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy moslashuvi ham muhim masaladir. Ba'zi o'quvchi-qizlar yangi jamoaga qo'shilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday holatlarda psixolog individual suhbatlar, guruh mashg'ulotlari va treninglar orqali yordam ko'rsatishi lozim. Jamoaviy faoliyat o'quvchi-qizlarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchi-qizlarning emotsional holatini barqarorlashtirish ham psixologik ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir. O'smirlik davrida hissiy o'zgaruvchanlik kuzatilishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun psixolog o'quvchi-qizlarga o'z his-tuyg'ularini to'g'ri boshqarishni o'rgatishi, stress va tashvishlarni kamaytirishga yordam berishi kerak.

Ta'lim jarayonida o'quvchi-qizlarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish ham muhim vazifadir. Motivatsiya o'quv faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'quvchi-qizlarga kelajakdagi maqsadlarini aniqlash, kasb tanlash jarayonida yordam berish ularning hayotiy rejalari shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'quvchi-qizlar bilan ishlash jarayonida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik va gigiyena qoidalariga rioya qilish shaxsning umumiy rivojlanishiga yordam beradi. Ta'lim muassasasida profilaktik suhbatlar va ma'rifiy tadbirlar tashkil etish orqali o'quvchi-qizlarning bilimini oshirish mumkin.

Psixologik xizmatning yana bir vazifasi o'quvchi-qizlarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishdir. Zamonaviy axborot makonida turli ma'lumotlar



oqimi mavjud bo'lib, bu yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli o'quvchi-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, to'g'ri axborotni tanlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

O'quvchi-qizlar bilan ishlashda individual yondashuv muhim prinsip hisoblanadi. Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati va qiziqishlari turlicha bo'ladi. Psixolog o'quvchi-qizlarning ichki dunyosini tushunishga harakat qilishi, ularni qo'llab-quvvatlashi va ijobiy yo'naltirishi kerak.

Maktab psixologi o'quvchi-qizlar bilan muntazam ravishda diagnostik ishlarni olib borishi zarur. Turli testlar, kuzatishlar va suhbatlar orqali ularning psixologik holati o'rganiladi. Olingan natijalar asosida individual rivojlanish dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. O'quvchi-qizlarning ma'naviy tarbiyasi ham muhim masalalardan biridir. Ularda milliy qadriyatlarga hurmat, kattalarga ehtirom, o'zaro yordam va bag'rikenglik kabi sifatlarni shakllantirish zarur. Ma'naviy tarbiya shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

O'zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraladi. O'zbekchilikda qizlarning yurish-turishi, gap-so'zi, o'zini tutishiyu, epchilchaqqonligi u ko'zga ko'ringan paytdan boshlab odamlarning og'ziga tushadi. Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko'ra uning husni xulqi, epchil, chaqqon, pazandayu chevarligiga ko'proq ahamiyat beriladi. Shuning uchun hamki qizning tug'ilganidan boshlab, unga muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, ozodalik va tozalik, oilada odob-axloq qoidalarini qat'iy o'rgatib boriladi. Har bir qiz – ana shu oilaning yuzi deb baho beriladi.

Umuman olganda, qiz farzandimiz dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk, komila etib tarbiyalashga va sog'lom bo'lib voyaga yetishiga jiddiy e'tibor qaratamiz. Dunyo go'zallari qaddu-qomati, tiniq yuziyu va hokazo shunga o'xshagan diqqatni tortadigan tashqi chiroyi bilan latofatli sanalsada, bunday sifatlar ikkinchi darajali xisoblanadi. Albatta,

birinchi o‘rinda yuqorida aytib o‘tilganidek qiz bolaning odob-axloqi, o‘zida ibo-hayo va ozodaligi kabi zebo xislatlarni mujassam etgan fe‘l-atvori bilan to‘kis husnga ega hisoblangan. O‘tmish avlodlarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘z oldimizga Oybachin, To‘maris, Qutlug‘nigorxonim, Gavharshodbegim, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira – yana yuzlab nomlarini keltirish mumkin – bo‘lgan ayollarimiz borki, ular shiddatkorligi, oqilaligi, sabr-toqatligi bilan birga ibo, hayosi bilan ham o‘rnak bo‘lishgan.

O‘zbek ayoli hamisha ham niyatini ochiq aytavermaydi. Dilidagisini pardalab gapirishga urinadi. Buni bosh milliy dostonimiz ««Alpomish»dagi bir qator tasvirlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Chunonchi, qalmoqlarning to‘qson alpi zug‘umida qolgan Oybachinning Alpomishga yozgan xatida bu holat yorqin ko‘zga tashlanadi. Qizning bitgan xati sof o‘zbekcha: «Oltoychalik yo‘lga keldim, to‘qson alpga toytalashda qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa javobimni bersin»

Kichikkina bu maktubda ham xavotir, ham noz, ham iddao, ham istig‘no, ham g‘urur, ham umid, ham ko‘ngil mayli aks etgan. O‘zbekning qizi haqiqiy maishiy vaziyat bilan emas, ko‘ngli holati bilan yashaydi. Birovga atashtirilgan qiz javobini olmasa, qaerda va qancha bo‘lsa ham, o‘zini boshi bog‘liq sanaydi, egali deb biladi. Chunki unga egalisan, deyilgan! Chun-ki u Yaratganni o‘rtaga qo‘yib so‘z bergan! O‘zbekning qizi uchun so‘z shunday qudratli kuch hisoblanadi. U «Ha, endi, vaziyat shunday bo‘lib qoldi, boshqaning etagini tutishimga to‘g‘ri keldi», demaydi. Deyolmaydi. U o‘zini o‘qilgan fotiha, atashtirilgan odam oldida mas‘ul sezadi. Ming yilcha oldin yaratilgan dostonda o‘zbek ayolining ma’naviyati, ibosi yorqin ko‘rinib turibdi.

Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog‘atga yetgach, o‘g‘il bo‘lsa uylantirib, qiz bo‘lsa uzatib, o‘z burchini ado etishi

kerak, deb ko'rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e'tibor berish, unga g'amxo'rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: "Agar qizing bo'lsa, uni mastura doyalarga topshirg'il, toki yaxshi parvarish qilg'aylar va kattaroq bo'lg'andin so'ng muallimga topshirg'il ... Balog'atga yetgandan so'ng harakat qilib erga berg'il, unga shafqat va marhamat ko'rguzg'il, nedinkim qiz otaning asiri bo'lur"⁴.

Bizda ayol tavozezi, ayol itoatkorligi oliy fazilat hisoblanadi. O'zbek ayoli deganda eri qarshisida bosh egib turgan go'zal siymo tasavvur etiladi va qizlar juda yoshligidanoq umr yo'ldoshini hurmat qilishga o'rgatiladi. Itoatkorlikning juda muhim tomonlari borki, uni nazardan qochirsak katta hato qilgan bo'lamiz. Itoatkor ayollar ikki toifaga bo'linadi, birinchi toifa erining zulmidan, jabr-jafosidan qo'rqib, uning har qanday istagi, amr va farmonlarini so'zsiz bajaradi; ikkinchisi esa o'zini tanigan o'z haq-huquqlarini anglagan, o'zini qadrlagan holda eriga o'zaro hurmat va muhabbat bilan itoat etadi. Bu esa momolarimizdan qolgan katta ma'naviy merosdir.

Xo'sh, ayol bolalarning, erlarning, hattoki millatning tarbiyachisi ekan, uning o'zini kim tarbiyalaydi? Bu savol ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning maqsadini ifoda etadi. Axir bizning maqsadimiz yaxshi, baxtli kelajak qurish emasmi? Shu bois bugun o'zini ziyoliman, deb hisoblovchi, o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lay oluvchi har bir fuqaro bu ulug' ishga bosh qo'shmog'i shart. Chunki, erkakni tarbiyalash – bir odamni tarbiyalash, ayolni tarbiyalash esa millatni tarbiyalash, demakdir. Buni hech qachon unutmaslik kerak. Faylasuflardan biri "Bizga yaxshi onalarni beringlar, biz yaxshi odamlar bo'lib yetishamiz", deya ta'kidlaganda haq edi.

Ayni vaqtda, ma'naviy poklanishimiz, milliy tiklanishimiz va kuch-qudratimizni oshirish uchun yaxshi odamlar kerak. Demak, yaxshi onalar kerak. Illo, yaxshi onalar millatimizning kelajagidir. Kelajak esa yonimizda e'tiborga, mehr-muhabbatga intizor bo'lib turibdi. Ertangi farovon kunimiz

hurmati, ayolga shavkatli va muruvvatli bo'laylik! Zero insoniyatning baxti ham baxtsizligi ham ayolda mujassam bo'lgan. Adabiyot namoyondalaridan biri, Sharl' Bodler "Ayol – baxtga taklifnomadur" deb dilbar so'zlar bilan ayolni ulug'lagan edi. Bu ko'hna dunyoning qiyomatga qadar barhaq turadigan ilohiy kalomlaridan biridir.

Qizlarimizning seplarida ularning ma'naviyatini ko'tarishga xizmat qiladigan turli mavzulardagi kitoblar, ma'naviy manbalar (onalar tomonidan tikilgan kashtalar, buvilari tomonidan qoldirilgan taqinchoqlar) bo'lsa juda yaxshi bo'lar edi. Shu sababli o'zbek oilalarida qizlarni tarbiyalashda quyidagi masalalarga e'tiborni qarotmoq lozim deb topdik:

- qizlarimizga yoshligidanoq o'zbek urf-odatlarini va udumlarini singdirib borish;
- avvalo ona, qolaversa, ota qiziga har tomonlama o'rnak, namuna bo'lishi lozim;
- oilada ayollar o'rini, vazifasini, burchini, huquqini tushuntirib borish;
- oilada ayollar zimmasidagi yumushlarini puxta o'rgatib borish;
- qizlarning savollariga, tushunmagan narsalari bo'yicha so'rovlariga shoshilmay, mukammal javob berish;
- qarindosh -urug', mahalla-kuydagi obru-e'tiborli oilalarning ayollarini, qizlarini namuna qilib ko'rsatib borish;
- ortiqcha erkalatmaslik, ranjitmaslik, ayniqsa, yomon so'zlar bilan haqoratlamaslik kerak;
- qiz bolaga ota-ona, aka-ukalar tomonidan zulm o'tkazmaslik;
- noto'g'ri ish, hatti-harakatini tushuntirib, yengil koyish bilan birga yaxshi ishlarni rag'batlantirib borish;
- yoshi ulg'aya borgan sari qiz bolaga turmush, oila, turmush o'rtog'i, unga munosabat haqidagi tushunchalarni shakillantirish;

- qiz bolaning adabiyotga, san'atga she'riyatga havasini orttirib borish;

- odob-axloq, sharm-hayo, ibo, muloyimlik, yurish-turish va kiyinish madaniyati, tejamkorlik, sabr-toqatli bo'lish masalalarida tushuncha berib borish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatdagi har bir qiz millatning ertasi hisoblanadi. Chunki, uning faoliyati, hech bo'lmaganda, bitta oilani qamrab oladi. Oiladagi muhitning ta'siri jamiyatning ildiziga borib tutashadi. Kelajak egalari sanaluvchi yoshlarni tarbiyalar ekan har bir qiz fan tomondan ham, din tomondan ham atroflicha, chuqur bilimga ega bo'lishi shart. Qolaversa, qizlarning ushbu jihatlarda ham savodxonligi ahamiyatlidir:

- meditsinaga oid boshlang'ich tushunchalar;

- matematik savodxonlik;

- ona tilini yaxshi bilishi;

- odob-axloq normalariga oid bilimlar;

- urf-odat, milliy qadriyatlar, an'analarga hurmat; - o'zini shaxs sifatida tanish. Asrlar oshib, o'zbekning tarjimai holiga aylangan mintalitetimiz qoidalarini texnologiya asrida ham qizlarimizga ziynat bo'lib xizmat qilishi xalqning muddaosidir. Ayol xilqatining haqiqiy qiyofasini belgilovchi bu kabi hislatlar esa qizlarning sharqona tarbiya olib, hayotda o'z o'rnini topishiga, qolavesa, ijtimoiylashuviga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi-qizlar bilan ishlash ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularning psixologik barqarorligi, o'ziga ishonchi va ijtimoiy faolligini oshirish orqali jamiyat uchun munosib avlodni tarbiyalash mumkin. Ta'lim muassasalari, psixologlar va ota-onalar hamkorlikda ishlasa, o'quvchi-qizlarning har tomonlama rivojlanishiga erishiladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining navbatdagi sesiyasidagi ma’ruzasi. 2019 yil.07.03
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008
3. Kaykovus. “Qobusnoma”. Yangi avlod, 2018. - 86-bet
4. Xudoyqulov X.J. Odob-axloq durdonalari. –T.: TTYMI, 2010. – 124 b.
5. Ziyo.net

